

## READING AND READING CULTURE IN UZBEKISTAN

**Paxriddinova Dilshoda,**  
Chirchiq davlat pedagogika instituti 2-bosqich talabasi.  
Tel: 94 4166846 .  
Pochta:paxriddinovadilshoda@gmail.com

### Annotation:

Through this article, you can learn about the interest in reading, the promotion of reading in our country through 5 initiatives. You can learn about the development of reading culture and the measures taken for reading.

### Keywords:

Publishing, perception, library, unique works, reading culture, 5 important initiatives, information resource center.

2017 yil 13-sentabrdagi ".O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi Qarorida mamlakatimizda kitob va kitobxonlikni rivojlantirish, axborot resurs markazi tizimini yanada isloh qilish hozirgi bosqichda eng muhim vazifa ekanligi davlat siyosati darajasida e'tirof etildi.

Shubhasiz, kitob inson aqlini charxlaydigan, uni ma'naviy kamolot sari yetaklaydigan beba ho bir vosita. Xalqimiz azaldan kitobxonligi va ilm-ma'rifatga intilishi bilan dong taratgan, shu bois, inson mutolaasiz, kitob o'qimasdan siyosiy, huquqiy, ilmiy, ma'naviy taraqqiyotga erishish mutlaqo mumkin emas.

Ajdodlarimiz biz uchun qoldirgan beba ho kitoblarni mutolaa qilib bugungi taraqqiyot cho'qqisiga erishmoqdamiz. Bobokalonlarimizning aniq fanlarga oid benazir asarlari, tariximizning eng qadimiy lavhalari aks etgan mo'tabar manbalar, eng asosiysi cheksiz ma'nolar ummoni bo'lmish mumtoz adabiyotimizni o'qish va uqish ziyo ahlining ulkan vazifalaridan biridir. O'zbekistonda kitobxonlikni oshirish maqsadida Prezidentimiz qaroridan so'ng ko'plab chora tadbirlar amalgalashirilmoxda. Yangi kitoblar nashir qilinishi yo'lga qo'yildi, har bir tuman va shaxarlarda, maktab, oily ta'llim muassasalarida kitobxonlikka bag'ishlab ko'rik tanlovlardan yuzlab loyhalar o'tkazila boshlandi. Bu tanlovlarni o'tkazilishi albatta kitobga qiziqishni, mutolaa ma'daniyatini yuksaltirishga poydevor bo'lib hizmat qilmoqda. Kitobxonlik madaniyati avvalo oilada shakillanadi. Chunki "qush uyasida ko'rganini qiladi" degan gap ham bejizga aytilmagan.

Mutolaa madaniyati deganda eng avvalo, kitobni tanlay bilish va uni ma'no-mohiyatini teran tushunish malakasi nazarda tutiladi.

"Odamlar o'qishdan to'xtaganda, fikrlashdan ham to'xtaydi" degan edi buyuk fransuz mutaffakiri Didro.

Ko'p kitob o'qigan inson albatta ajiralib turadi, chunki keng davraga tushib qolganda o'zini zukkoligi, teran fikrlashi, gapga ustaligi, hamma gapni o'z o'rnda qo'llay olishi bn ajiralib turadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus doirasida ham kitob mutoaalasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishga ham alohida to'xtalib o'tilgan. Hozirgi kunda O'zbekistonda kitoblarni chop etish, ularni tarqatish tizimini takomillashtirish va eng muhimi, kitob chiqarish va kitobxonlikning davlat siyosati darajasiga ko'tarilayotganidan quvonishimiz kerak albatta. Bu o'rinda aytishim joizki, qaysi kitobni o'qishi yoki o'qimasligi har kimning shaxsiy ishi. Lekin davlatni rivojlanishi uni ravnaq topishi biz kabi yoshlarni qo'lida, bugun biz kitob o'qimasak, ertaga ukalarimiz, singillarimiz ham biz kabi bo'lib qolishi mumkin. Shuning uchun bugun biz yosh avlodga asarlarni mutolaa qilib, ularga ham o'rgatishimiz darkor. Kitob mutolaasiga munosabatni tubdan o'zgartirish uchun avvalo, ziyoli o'qtuvchilarga suyanishimiz kerak.

N.A.Rubakin ta'biri bilan aytganda "Yaxshi kutubxona koinotning kitobdagi in'ikosidir".

O'zbekistonda noshirlik faoliyati rivojlanib , kitob mutolaasi yanada ommalashib bormoqda.Hozirgi kunga kelib muloqotning audio, video vositalari,radio,televidenya, axborot kammunikatsiya tarmoqlari hayotimizdan chuqur o'rin egallashi ham yurtimiz rivojlanayotganidan,ziyolilar qatlami ko'payayotganidan darak albatta.Olimlarning fikricha,bir odam butun umri davomida 2000 ta kitob o'qiy olish imkoniyatiga ega ekan.Barkamol avlodni voyaga yetkazish uchun,ularni kitob bilan oshno qilishimiz va mutolaa ma'daniyatini singdirishimiz zarur.

"Mutolaa" so'zi arabcha "o'qish" degan ma'noga ega bo'lsa-da,hozirgi kunda u kitob o'qishdan ko'ra kengroq tushunchani anglatmoqda. Jamiyatda qaysiki inson katta muvafaqqiyatlarga erishgan bo'lsa undan so'rasangiz albatta kitob mutolaasiga qiziqganligi va doim o'qib yurishini takidlaydi.Balki har joyda iqlimiga qarab dersiz, balki har bir shaxs "men"ida kitobning o'zgacha ta'siri bordir.Ammo shuni aytish joizki, har bir millat va davlatda kitobxonlik,savodxonligini qayd etishda har bir inson o'zining ko'rsatgichini qayd eta oladi.Xususan bizning mamlakatimizda ham ayni kunlarda uning saviyasi va o'rni oshib bormoqda. Yuqorida zikr qilingan barcha fikr va mulohazalardan,shularni xulosa qilishimiz mumkinki, zero ma'rifatga intilish yuksak ma'naviyatga erishmoqqa poydevordir. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish borasida olib borilayotgan ishlar hamisha dolzarb va davomli bo'lib qoladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar :**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining . 2017-yil 13-sentabrdagi 3271-son Qarori.
2. Pedagog.uz
3. Kun.uz